

TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONIDA SHAXS ISTE'MOL MADANIYATINI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI

Xaydarov Asliddin Nizamitdinovich

Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada transformatsiyalashuv jarayonida shaxs iste'mol madaniyatidagi o'zgarishlar hamda uni tartibga solish mexanizmlari, transformatsiya tushunchasining ijtimoiy-madaniy mohiyati, iste'molning nafaqat iqtisodiy, balki axloqiy va ijtimoiy jihatlari yoritilib o'tilgan. Iste'mol madaniyatini tartibga solishda ta'lim va ma'rifat, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy institutlar, huquqiy mexanizmlar hamda shaxsiy mas'uliyatning o'rni asoslab beriladi. Shuningdek, transformatsiyalashuv sharoitida ongli va mas'uliyatli shaxs iste'mol madaniyatini shakllantirish jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil ekanligi yoritilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: transformatsiyalashuv jarayoni, ehtiyoj, iste'mol madaniyati, qadriyatlar, raqamli iste'mol, iqtisod, axborot, ijtimoiy me'yorlar.

MECHANISMS FOR REGULATING THE CONSUMER CULTURE OF THE PERSON IN THE PROCESS OF TRANSFORMATION

Abstract: In this article, changes in the consumer culture of the individual in the process of transformation and mechanisms for its regulation, the socio-cultural essence of the concept of transformation, and not only economic, but also moral and social aspects of consumption are highlighted. The role of education and enlightenment, moral values, social institutions, legal mechanisms, and personal responsibility in regulating consumer culture is substantiated. It is also highlighted that the formation of a conscious and responsible consumer culture of an individual in the context of transformation is an important factor in ensuring the sustainable development of society.

Keywords: transformation process, needs, consumer culture, values, digital consumption, economy, information, social norms.

МЕХАНИЗМЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОЙ КУЛЬТУРЫ ЛИЧНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ТРАНСФОРМАЦИИ

Annotatsiya: В данной статье освещаются изменения в потребительской культуре личности в процессе трансформации и механизмы ее регулирования, социокультурная сущность понятия трансформации, не только экономические, но и нравственные и социальные аспекты потребления. Обосновывается роль образования и просвещения, нравственных ценностей, социальных институтов, правовых механизмов и личной ответственности в регулировании культуры

потребления. Также подчеркивается, что формирование потребительской культуры сознательной и ответственной личности в условиях трансформации является важным фактором.

Ключевые слова: процесс трансформации, потребность, культура потребления, ценности, цифровое потребление, экономика, информация, социальные нормы.

Bugungi kunda insonlar “eski ehtiyojlardan”dan voz kechib, yangi mahalliy yoki xorijiy tovarlarga ustuvorlik bermoqda. Bu esa ular iste’molida o‘z aksini topib, shaxsiy xohishlar, turmush tarzi va o‘zini namoyon qilish shakllarining xilma-xilligini kuchaytiradi.

Fan taraqqiyotida keyinchalik yangilanish, integratsiya jarayonlarini qo‘llab jamiyat ijtimoiy-tarixiy rivojlanishini bugungi bosqichida transformatsiya tushunchasini ko‘p ishlatmoqdamiz. Tarixiy rivojlanish konsepsiyasida “Transformatsiyalash davri” tushunchasi ham ishlatiladi”⁶³. Uni keyingi davriga nisbatan qo‘llaganda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy sohalardagi o‘zgarishlar, yangilanishlarni anglatadi. Jamiyatdagi o‘zgarishlar ham turli vaqtda sodir bo‘lganini, mazmuni va mohiyati, xarakterli jihatlari bilan farq qilishini hisobga olish lozim.

Fenomenologik va sotsiologik yondashuvlarga ko‘ra, bilim ijtimoiy jihatdan shakllanadi va uni uzatuvchi subyektning ijtimoiy mavqeini aks ettiradi. Bu holat shaxsning iste’mol tanlovlari ham obyektiv ehtiyojlardan ko‘ra ko‘proq madaniy, ramziy va axborot omillari bilan belgilanayotganini ko‘rsatadi.

Jamiyatning rivojlanishi bilan muayyan tizim shakllangan hamda u mukammallashib, zamonaviylashib borgan. Rivojlangan jamiyatlarga xos ijtimoiy-siyosiy tizim va munosabatlar, ularning amalga oshiruvchi qonun-qoidalari, qadriyatlar, milliy-madaniy meros sifatida shakllangan. Jamiyat o‘z taraqqiyoti jarayonida ko‘proq iqtisodiy o‘zgarishlarga ehtiyoj sezgan hamda ushbu iqtisodiy o‘sish xalqlarning xohish-irodasi sifatida faravon sharoitni yarata boshlagan.

Mamlakatimizda keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya jarayonlar murakkab tizimlar va strukturalari o‘zgarishlarga olib kelmoqda. “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” Prezident farmoni bo‘yicha qilinayotgan amaliy natijalar ijtimoiy transformasiyalarning inson kapitaliga qay darajada bog‘liqligini ko‘rsatib bermoqda. Shuning uchun islohotlarning samaradorligini ta’minlashda shaxs iste’mol madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga egadir. Iste’mol madaniyati – bu jamiyatda moddiy va nomoddiy ne’matlarni sotib olish, ulardan foydalanish hamda qadriyat va ijtimoiy mavqeni shakllantirish tizimidir.

Hozirgi vaqtda yurtimizdagi transformatsion ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar asta-sekin aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining yangi-yangi tizimlarini shakllantirmoqda. Ushbu jarayonlar O‘zbekistonda ijtimoiy davlatni barpo etish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar ko‘plab omillar bilan bog‘liq bo‘lib,

⁶³ Transformatsiya – o‘zgarish, yangilanish, bir holdan boshqa holga, bir shakldan boshqa shaklga o‘tish ma’nolarini anglatadi.

ularning asosiy qismini aholi ehtiyojini qondirishdagi ayrim nomutanosibliklar tashkil etmoqda. Ijtimoiy himoya tizimining transformatsiyasi ishlab chiqarish hajmining pasayishi, aholi iste'mol madaniyatning pastligi, iqtisodiyotdagi tarkibiy nomutanosibliklar hamda ishsizlikning ortishi bilan birga yuzaga chiqmoqda. "Insonning shaxs sifatida shakllanganligini ko'rsatuvchi asosiy mezonlardan biri uning hayotining mazmundorligidir. Hayotning mazmundorligi insonning eng oliy qadriyatlaridan biri sanaladi. Bir qarashda inson umrining o'tkinchiligi va cheklanganligi uni har qanday mazmundan mosuvo qilayotgandek tuyuladi"⁶⁴.

Tarixiy jihatdan iste'mol madaniyati Yevropada sanoat inqilobi, ommaviy ishlab chiqarish va reklama tizimining rivojlanishi bilan bog'liq holda shakllandi. Keyinchalik bu jarayon global miqyosda tarqalib, rivojlanayotgan mamlakatlarda ham jadal sur'atlarda rivojlandi. Bugungi kunda iste'mol madaniyati shaxsning kundalik hayotini, orzu-intilishlarini va o'zini anglash jarayonini belgilovchi muhim omilga aylandi. Shaxs iste'mol madaniyatini tartibga solish zarurati hamda transformatsiyalashuv sharoitida iste'molning cheklanmagan rag'batlantirilishi bir qator muammolarni keltirib chiqardi: ortiqcha xarajatlar, ekologik beqarorlik, kreditga qaramlik, axloqiy qadriyatlarning zaiflashuvi va boshqa sabablar. Shu sababli shaxs iste'mol madaniyatini tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda shaxs iste'mol madaniyatini tartibga solish mexanizmlarini keltirib o'tishimiz mumkin:

Birinchidan, ta'lim berish mexanizmi – iste'mol madaniyatini tartibga solishning asosiy omillaridan biridir. Shaxs iste'molchi sifatida o'z huquqlari, majburiyatlari, moliyaviy savodxonlik va ongli tanlov tamoyillarini bilishi zarur.

Ikkinchidan, axloqiy va madaniy mexanizm – jamiyatda tejamkorlik, mas'uliyatli iste'mol va ijtimoiy manfaatlarni hisobga olish kabi qadriyatlarni mustahkamlash iste'mol xulq-atvorini muvozanatlashtiradi.

Uchinchidan, ijtimoiy mexanizm – oila, mahalla, ijtimoiy guruhlar va ommaviy axborot vositalari shaxs iste'moliga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy namunalar va sog'lom turmush tarzi targ'iboti bu jarayonda muhim rol o'ynaydi.

To'rtinchidan, huquqiy va institutsional mexanizm – davlat tomonidan iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, sifat nazorati va adolatli bozor mexanizmlarini ta'minlash shaxsni qonuniy himoya qiladi.

Beshinchidan, shaxsiy mas'uliyat mexanizmi – har bir individ o'z ehtiyojlarini real imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirishi, reklama va ommaviy madaniyat ta'sirini tanqidiy baholay olishi zarur.

Shu bois transformatsiyalashuv jarayoni shaxs iste'mol madaniyatiga kuchli ta'sir ko'rsatib, uni ijtimoiy va madaniy identifikatsiyaning muhim vositasiga aylantirdi. Biroq bu jarayonni tartibga solinmasligi jamiyatda ijtimoiy tengsizlik, ma'naviy bo'shliq va iqtisodiy beqarorlikni kuchaytirishi mumkin. Shu bois shaxs iste'mol madaniyatini tartibga solish ma'rifiy, axloqiy, ijtimoiy va huquqiy mexanizmlar uyg'unligi orqali amalga oshirilishi lozim. Faqat shundagina

⁶⁴ Мажидов М.А. Постмодерн жамиятда инсон шахси трансформациясининг ижтимоий-фалсафий муаммо-лари: Фалс.докт. (PhD) дисс.- Самарқанд: СамДУ, 2021.- Б.23-24.

transformatsiyalashuv jamiyat va inson manfaatlariga xizmat qiladigan barqaror jarayonga aylanishi mumkin.

Keyingi yillarda O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida iste'molchilar uchun salmoqli ishlar jumladan, raqamli transformatsiya bo'yicha tadbirlar amalga oshirilmoqda. Raqamli iqtisodiyotning asosiy elementini esa Internet tashkil etadi. Raqamli iqtisodiyotda iste'molchilar zarur bo'lgan xizmat va tovarlarni Internet vositasida sotib olishi va xizmatlardan arzonroq tarzda foydalanishi mumkin. Masalan, kitoblarning elektron nashrlari bosma nashrdan ko'ra bir necha bor arzonga tushishi mumkin.

Ijobiy iqtisodiy o'sish dinamikaga mos ravishda aholi bandligini ta'minlash hamda ushbu omillarning yoshlar mehnat bozoriga ta'siri quyidagi parametrlar orqali namoyon bo'ladi: ish o'rinlarining tarkibi va tuzilishi, ularning ko'rsatkichlari, ishchi kuchining sifat xususiyatlari va uning harakatchanligidir. Biroq, bugungi yoshlar mehnat bozoriga mamlakatdagi transformatsion o'zgarishlarning tez kirib kelmoqda.

Yoshlarning tanlov iste'molchilik raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi tashqi ijtimoiy omillar orasida ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, mentalitet, diniy va etnik omillar, ya'ni nafaqat ijtimoiy institutlar (oilalar, maktab) bevosita bog'liq bo'lgan omillar muhim o'rin tutadi.

Professor Sh.Paxruddinov "Davrni chuqur anglash, u bilan hamnafas bo'lib yashash bilan bog'liq davr talabi jarayonlari o'zaro dialektik aloqadorlikda bo'lib, taraqqiyot uchun zamin tayyorlashini"⁶⁵ ta'kidlaydi. Darhaqiqat, hozirgi zamondagi o'zgarishlar nuqtai nazaridan qaranganda ijtimoiy munosabatlar va shaxs iste'mol madaniyatining o'zgarishi barcha sohalar bilan bog'liq hodisadir.

Jamiyatning oldingi tizimdan demokratik jamiyatga o'tishdagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy hamda huquqiy negizini transformatsiya qilish uchun jamiyat va davlat qurilishni, iste'moldagi turli munosabatlarning qonunchilik va huquqiy asoslarida islohatlar amalga oshirildi. Bunda jamiyat taraqqiyoti chuqur va murakkab transformatsiyalashuv jarayonlari bilan tavsiflanadi. Bu jarayonlar nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarini, balki inson tafakkuri, qadriyatlar tizimi, madaniyat va kundalik iste'mol amaliyotlarini ham tubdan o'zgartirmoqda. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari, reklama va global madaniy oqimlar ta'sirida shaxsning iste'mol xulq-atvori yangi shakllar kasb etmoqda. Shu bois transformatsiyalashuv sharoitida shaxs iste'mol madaniyatini ongli ravishda tartibga solish masalasi dolzarb ilmiy muammoga aylanmoqda.

Transformatsiyalashuv jarayonida global iste'mol madaniyat va ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotida markaziy o'rin egallay boshladi. Axborotga boy jamiyatda shaxs dunyo haqidagi bilimlarning asosiy qismini aynan media orqali qabul qiladi. Natijada ommaviy axborot vositalari global g'oyalar, qadriyatlar va iste'mol modellari tarqalishining asosiy mexanizmiga aylanadi. Bunda samaradorlik, tezkorlik va standartlashtirish iste'mol madaniyatining asosiy tamoyillariga aylanadi.

⁶⁵ Пахрутдинов Ш. Тараққиётга таҳдид: назария ва амалиёт. –Т.: Академија, 2006. – В.14.

Shu bilan birga, global iste'mol madaniyat shaxsga "tanlash" imkonini ham beradi: turli madaniy elementlar birgalikda qo'llaniladi va yangilari shakllanadi.

Bodriyar ta'kidlaganidek, rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarishdan ko'ra belgilar, tasvirlar va ramzlar muhimroq tovarlarga aylanmoqda. Reklama va marketing orqali ko'rsatilgan tovarlar iste'molchini real ehtiyojlardan ko'ra obrazlar va imijlar ortidan ergashishga undaydi. Natijada shaxs real hayot bilan uning media tasvirlari o'rtasidagi farqni ajratishda qiynaladi. Bu holat iste'mol madaniyatida uslub va tashqi ko'rinishning mazmundan ustun kelishiga olib keladi.

Iste'mol madaniyatining nazoratsiz kengayishi ekologik inqiroz, ijtimoiy tengsizlik va axloqiy qadriyatlarning yemirilishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun transformatsiyalashuv jarayonida shaxs iste'mol madaniyatini tartibga solish mexanizmlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxs iste'mol madaniyatini tartibga solishda ko'proq ongli iste'mol ko'nikmalarini rivojlantirish, shaxsni reklama va manipulyativ axborotidan himoya qilish hamda sog'lom iste'mol namunalari orqali shaxs xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish muhimdir. Ya'ni, har bir shaxs o'z ehtiyojlarini tanqidiy tahlil qilishi, iste'mol tanlovlarining ijtimoiy va ekologik oqibatlarini anglab yetishi zarurdir.

Xulosa qilib aytganda, transformatsiyalashuv jarayoni iste'mol madaniyatini jamiyat va shaxs hayotining markaziy omillaridan biriga aylantirdi. Ommaviy media ta'siri ostida iste'mol nafaqat ehtiyojlarni qondirish vositasi, balki o'zini namoyon qilish va ijtimoiy mavqeni belgilash shakliga aylandi. Shu sababli shaxs iste'mol madaniyatini tartibga solish ma'rifiy, axloqiy, ijtimoiy va huquqiy mexanizmlar uyg'unligi orqali amalga oshirilishi lozim. Faqat shundagina transformatsiyalashuv jarayoni inson va jamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan barqaror rivojlanish omiliga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi
2. PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
- Пахрутдинов Ш. Тараққиётга таҳдид: назария ва амалиёт. –Т.: Akademiya, 2006.
3. Жан Бодрийяр. Система вещей. -Москва, «Рудомино», 1999.
4. Мажидов М.А. Постмодерн жамиятда инсон шахси трансформациясининг ижтимоий-фалсафий муаммо-лари: Фалс.докт. (PhD) дисс.- Самарқанд: СамДУ, 2021.